



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SO'Z YASALISH TIZIMINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Olima Rahmonali qizi

Qo'qon Davlat Universiteti 1- bosqich magistranti

mirzaevaolima1993@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash jarayonlari lingvistik tahlil qilinadi. Har ikki tilning morfologik tizimi, affiksatsiya, kompozitsiya va boshqa usullar orqali yangi so'zlar hosil qilishdagi o'xshash va farqli jihatlar ko'rib chiqiladi. Turli xil manbalardagi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, o'zbek tili agglutinatив xususiyatga ega bo'lsa, ingliz tili analitik va qisman flektiv xususiyatlarga ega bo'lib, bu so'z yasash usullarida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Shuni tan olish kerakki, so'z yasashi til lug'at boyligini muntazam ravishda boyitib boruvchi jarayondir. Ingliz va o'zbek tillarining so'z yasash tizimlari o'rtasida o'xshashliklar va farqlar mavjud. Maqolada so'z yasashning ayrim usullari o'rganilib, mavzuni tushuntirish uchun ko'plab misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: so'z yasashi, affiksatsiya, kompozitsiya, agglutinatив til, analitik til, flektiv xususiyat, morfologiya, derivatsiya, konversiya, reduplikatsiya

ABSTRACT: This article provides a linguistic analysis of word formation processes in the English and Uzbek languages. The morphological systems of both languages, as well as their similarities and differences in forming new words through affixation, composition, and other methods, are examined. According to the different sources of information that the Uzbek language has an agglutinative nature, whereas English is analytical and partly inflectional, which leads to significant differences in word formation processes. It should be noted that word formation is a process that continuously enriches the vocabulary of a language. There are both similarities and differences between the word formation systems of English and Uzbek. The article explores several methods of word formation and provides numerous examples to clarify the topic.



Keywords: word formation, affixation, compounding, agglutinative language, analytical language, flexible feature, morphology, derivation, conversion, reduplication

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлен лингвистический анализ процессов словообразования в английском и узбекском языках. Рассматриваются морфологические системы обоих языков, а также их сходства и различия в образовании новых слов с помощью аффиксации, словосложения и других способов. Согласно различным источникам, узбекский язык имеет агглютинативную природу, тогда как английский является аналитическим и частично флективным, что приводит к существенным различиям в процессах словообразования. Следует отметить, что словообразование — это процесс, который постоянно обогащает словарный состав языка. Между системами словообразования английского и узбекского языков существуют как сходства, так и различия. В статье рассматриваются несколько способов словообразования и приводятся многочисленные примеры для более ясного раскрытия темы.

Ключевые слова: словообразование, аффиксация, словосложение, агглютинативный язык, аналитический язык, признак гибкости, морфология, деривация, конверсия, редупликация.

KIRISH

Soʻz yasalishi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida, soʻz yasash va u bilan boʻgʻliq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, soʻz yasalishi tizimi haqidagi taʼlimotdir. Tilshunoslikda soʻz yasalishi (derivatsiya) tilning rivojlanishi va boyishida muhim ahamiyatga ega. Ingliz va oʻzbek tillari turli til oilalariga mansub boʻlib, ularning grammatik va morfologik tuzilishi sezilarli darajada farqlanadi. Shunga qaramay, har ikki til ham yangi soʻzlar yaratishda umumiy mexanizmlardan foydalanadi. “Soʻz yasalishi” termini ikki maʼnoda qoʻllanadi: bir tomondan, til materiali asosida yangi soʻz hosil boʻlish hodisasini, ikkinchi tomondan esa shu hodisalarni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimini anglatadi; har bir



tilning soʻz yasalihi oʻz tizimiga ega.¹ Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va oʻzbek tillarida soʻz yasalihi usullarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Ingliz tili hind-yevropa oilasining gʻarbiy german tarmogʻiga, oʻzbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub boʻlib, shu sababli ularning grammatik va morfologik tuzilishi sezilarli farqlanadi. Britannica ingliz tilida analitik, agglutinatив va flektiv xususiyatlar birga uchrashini, turkiy tillarda esa agglutinatив tuzilish va suffikslarning muhim rol oʻynashini qayd etadi.²

Shunga qaramay, har ikki til yangi soʻz yaratishda umumiy mexanizmlardan foydalanadi. Cambridge English Grammar Today ingliz tilida soʻz yasalihi asosiy koʻrinishlari sifatida prefixes, suffixes, conversion va compoundsni koʻrsatadi; shu manbada abbreviation ham qisqartirish orqali hosil boʻladigan faol usul sifatida izohlanadi.³

Shubhasiz, soʻz yasalihi lugʻat boyligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Zamonaviy ingliz tilida soʻz yasalihi toʻrtta asosiy usuli mavjud: affiksatsiya (happiness,tiredness), kompozitsiya (whiteboard,sunflower), konversiya(to email, email) va qisqartma (BBC,UK).⁴ Oʻzbek tilida ham soʻz yasalihi toʻrtta asosiy turi mavjud: affiksatsiya (xushxabar, saylgoh), qoʻshma soʻzlar (oqqush, temiryoʻl), konversiya (kasal, gʻolib), qisqartma (OʻzMU).⁵

Quyida ushbu usullarni koʻrib chiqamiz:

1. Affiksatsiya (yasalihi)

Affiksatsiya ingliz tilida tarix davomida eng umumli soʻz yasalihi usullaridan biridir. Bu usul maʼlum bir soʻz asosiga affiks qoʻshish orqali amalga oshiriladi. Yaʼni,soʻz yasalihi deganda, maʼlum bir lugʻaviy birlikdan soʻz yasovchi vosita yordamida yangi soʻz hosil qilish tushuniladi. Har qanday yasama soʻz soʻz yasalihi asosi va soʻz yasalihi asosi va soʻz yasovchidan iborat tarkibiy qismdan

¹Hojiyev, Azim. Oʻzbek tili soʻz yasalihi. Toshkent: Oʻqituvchi, 1989,

² Encyclopaedia Britannica: "English language"; "Uzbek language"; "Language typology"; "Turkic languages: Linguistic structure."

³ Cambridge Dictionary, English Grammar Today, "Word formation."

⁴ Oxford English Dictionary, "Updates"

⁵ Hojiyev, Azim. Oʻzbek tili soʻz yasalihi,



iborat bo'лади. Shunday qismlarni biriktirib, so'z hosil qilish so'z yasash usulini belgilaydi.⁶

Suffikslar (-age, -ance, -ant, -ee, -ence, -er/-or, -ery, -full, -ion) so'z turkumini o'zgartirishi mumkin:

- sifat → ot: -ness (happy → happiness)
- sifat → fe'l: -ize (modern → modernize)
- ot → sifat: -al (recreation → recreational)
- ot → fe'l: -fy (glory → glorify)
- fe'l → sifat: -able (wash → washable)
- fe'l → ot: -ance (deliver → deliverance)

Prefiksatsiya (dis-, anti-, de-, em-, en-, in-, im-, inter-, mid-, non- ...) — so'z boshiga qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasashdir. Ingliz tilida bu usul asosan fe'llar yasashda kengroq qo'llaniladi.⁷

Prefikslarning ma'nosiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

- a) inkor ma'nosi: in- (invaluable), non- (nonferrous)
- b) takror yoki teskari harakat: de- (decolonize), re- (redo), dis- (discomfort)
- c) vaqt, makon, daraja: inter- (international), hyper- (hyperactive), ex- (ex-president), pre- (pre-election)⁸

O'zbek tilida prefikslarning barchasi ko'p hollarda boshqa tillardan o'zlashgan hisoblanadi. Quyida ulardan misollar keltiraman:

A) Circumfix — so'zning ikki tomoniga qo'shiladigan affiks (masalan: un-imagin-able).

B) Infiks — so'z ichiga joylashtiriladigan affiks bo'lib, yangi so'z yoki kuchaytirilgan ma'no hosil qiladi.⁹

2. Kompozitsiya (qo'shma so'zlar)

⁶ Po'latov, M. (2012). O'zbek tilining morfologiyasi. Toshkent

⁷ Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge: Cambridge University Press

⁸ Bauer, L. (1983). English Word-Formation. Cambridge: Cambridge University Press.

⁹ Sodiqov, A. (1996). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi



Kompozitsiya — ikki yoki undan ortiq asosni birlashtirib yangi soʻz yasashdir. Ingliz tilida qoʻshma soʻzlar odatda bitta urgʻuga ega boʻladi (masalan: hard-cover, best-seller).

Soʻz turkumiga koʻra esa ular turlicha yasaladi:

- otlar: baby-sitter, globe-trotter
- sifatlar: free-for-all, power-happy
- feʼllar: to honeymoon, to babysit
- ravishlar: headfirst
- predloglar: into, within
- sonlar: fifty-five¹⁰

Tuzilishiga koʻra ham bir necha turlarni misol keltirish mumkin:

- a) oddiy qoʻshma soʻzlar: job-hunt
- b) affiksli qoʻshma soʻzlar: ear-minded
- c) uch yoki undan ortiq asosli: singer-songwriter
- d) qisqartirilgan qoʻshma soʻzlar: boatel, motocross¹¹

Oʻzbek tilida ham qoʻshma soʻzlar keng tarqalgan boʻlib, koʻpincha yangi soʻzlar ingliz tilidan kirib keladi (masalan: cell phone, cheeseburger, hotdog).

3. Konversiya

Konversiya usulida asosan soʻz shaklini oʻzgartirmagan holda uning grammatik turkumini oʻzgartiriladi. Quyidagi namunalrda buni koʻrishimiz mumkin.

- ot → feʼl: bottle (idishga solmoq)
- feʼl → ot: hit
- sifat → ot: crazy
- sifat → feʼl: dirty

Konversiya ingliz tilida juda muhim usul boʻlib, ayniqsa feʼllar yasashda keng qoʻllaniladi.¹²

4. Qisqartma (abbreviatsiya)

¹⁰ Asqarova M. Oʻzbek tilida soʻz yasash va uning usullari. — Toshkent: Universitet, 2005,

¹¹ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 1990. — 45–50-betlar.

¹² Katamba F. Morphology. — London: Macmillan Press, 1993. — P. 20–25.



Muloqot jarayonida soʻzlar va iboralar turli xil sabablarga koʻra qisqartiriladi. Qisqartmalar asosan ikki turga boʻlinadi: grafik va leksik. Amerika ingliz tilida qisqartmalardan keyin nuqta qoʻyiladi (Dr., Ms.), britan ingliz tilida esa koʻpincha qoʻyilmaydi (Dr, Ms). Qisqartmalar baʼzan hazil yoki kinoya ifodalashi ham mumkin:

- TGIF — Thank God It's Friday
- BOGSAT — Bunch Of Guys Sitting Around a Table¹³

Grafik qisqartmalar esa asosan yozma nutqda qoʻllanadi. Misol uchun quyidagilarni koʻrishimiz mumkin:

- hafta kunlari: Mon (Monday)
- oylar: Apr (April)
- unvonlar: Mr., Dr.
- harbiy darajalar: capt., col.
- ilmiy darajalar: B.A., D.M.
- oʻlchov birliklari: ft (foot), sec (second)¹⁴

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida turli xil metod va usullardan foydalanildi. Bu usullar oʻz navbatida mavzuni toʻliq tushunishga va oʻrganishga yordam berdi. Bundan tashqari quyida keltirilgan usul va metodlar oʻrganuvchilar uchun ham foydali boʻladi. Ular quyidagilardan iborat:

- Qiyosiy-tahliliy usul
- Morfologik tahlil
- Deskriptiv (tasviriy) yondashuv

Bundan tashqari, maʼlumotlar sifatida ingliz va oʻzbek tillaridagi lugʻatlar, grammatik qoʻllanmalar hamda ilmiy manbalar oʻrganildi. Buning natijasida esa mavzuni toʻliq va tushunarli ochib berishga harakat qilindi.

NATIJALAR

¹³ Lieber R. *Introducing Morphology*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — P. 8–12.

¹⁴ Marchand H. *The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation*. — Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag, 1969. — P. 5–10.



Barchamizga ma'lumki, har bir tadqiqotni olib borishdan maqsad, shu ishdan samarali natija olishdir. Tadqiqot jarayonida esa quyidagi natijalarga duch kelindi:

1. O'xshash jihatlar

- Affiksatsiya (qo'shimchalar yordamida so'z yasalishi)

Har ikkala tilda ham prefiks va suffikslar orqali yangi so'zlar hosil qilinadi:

- Ingliz tilida: *happy* → *unhappy*, *teach* → *teacher*

- O'zbek tilida: *ish* → *ishchi*, *yo'z* → *yo'zuvchi*

- Kompozitsiya (so'z qo'shish)

Har ikki tilda ikki yoki undan ortiq so'z birikib yangi ma'no hosil qiladi:

- Ingliz tilida: *blackboard*, *toothpaste*

- O'zbek tilida: *oshxona*, *temiryo'l*

- Konversiya (so'z turkumini o'zgartirish)

Ingliz tilida keng tarqalgan, o'zbek tilida esa kamroq uchraydi:

- Ingliz tilida: *to run* → *a run*¹⁵

2. Farqli jihatlar

- Morfologik tuzilish

- O'zbek tili — agglutinatív til (qo'shimchalar qatlam-qatlam qo'shiladi)

- Ingliz tili — analitik til (ko'proq yordamchi vositalar orqali ma'no

ifodalanadi)

- Affikslarning roli

- O'zbek tilida qo'shimchalar juda faol va tizimli

- Ingliz tilida affikslar mavjud, lekin cheklanganroq

- So'z yasash unumdorligi

- O'zbek tilida yangi so'z yasash imkoniyati yuqori

- Ingliz tilida ko'pincha mavjud shakllardan foydalaniladi yoki qarz so'zlar

olinadi

- Reduplikatsiya (takrorlash)

¹⁵ Karimov, G. (2010). Comparative Typology of English, Uzbek, and Russian Languages. Tashkent: UzSWLU Press.



- O‘zbek tilida keng qo‘llanadi (*sekin-sekin, katta-katta*)
- Ingliz tilida kam uchraydi (*bye-bye, goody-goody*)¹⁶

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki til o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga ega bo‘lsa-da, umumiy so‘z yasash mexanizmlari mavjud. O‘zbek tilining agglutinatив tabiati unga murakkab va ko‘p bosqichli so‘z yasash imkonini beradi. Ingliz tilida esa iqtisodiylik va soddalik ustun bo‘lib, ko‘pincha qisqa shakllar afzal ko‘riladi.

Yana bir muhim jihat — globallashuv ta’siri. Ingliz tilining xalqaro til sifatidagi mavqei sababli ko‘plab yangi terminlar, ayniqsa texnologiya va ilm-fan sohalariga oid birliklar o‘zbek tiliga aynan ingliz tilidan kirib kelmoqda. Bu jarayon o‘zbek tilida yangi so‘z yasash modellari paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasash jarayonlari o‘xshash umumiy qonuniyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning amalga oshish mexanizmlari, qo‘llanish darajasi va funksional imkoniyatlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Bu esa har ikki tilning o‘ziga xosligini va mustaqil rivojlanish yo‘lini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi o‘xshash asosiy mexanizmlarga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilish darajasi va usullari farqlanadi. O‘zbek tilida affiksatsiya yetakchi o‘rin tutadi, ingliz tilida esa kompozitsiya va konversiya muhim rol o‘ynaydi. Bu farqlar tillarning tipologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Lekin, har ikki til tilshunosligida so‘z yasalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning lug‘aviy jihatdan boyishida so‘z yasash jarayonlarning o‘rni beqiyosdir.

Har ikki tilda affiksatsiya va kompozitsiya asosiy so‘z yasash usullari sifatida xizmat qiladi. Biroq ularning qo‘llanish darajasi va shakllanish mexanizmlari turlicha. O‘zbek tilida qo‘shimchalar orqali yasash ustun bo‘lsa, ingliz tilida esa qo‘shma so‘zlar, konversiya va qisqartmalar ko‘proq uchraydi. Bu farqlar tillarning tarixiy rivoji, tipologik xususiyatlari va tashqi omillar, jumladan, globallashuv va

¹⁶ Karimov, G. (2010). Comparative Typology of English, Uzbek, and Russian Languages. Tashkent: UzSWLU Press.



texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, bugungi kunda ingliz tilining global ta’siri natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab yangi so‘zlar, ayniqsa qo‘shma va texnologik terminlar kirib kelmoqda. Bu esa o‘zbek tilining lug‘at boyligini yanada kengaytirib, uning zamonaviylashuviga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, so‘z yasalishi har qanday tilning rivojlanishida muhim omil bo‘lib, u nafaqat yangi birliklarni yaratadi, balki tilning ichki imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish esa ularning umumiy va farqli jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova, M. (2005). O‘zbek tilida so‘z yasalish va uning usullari. Universitet.
2. Hojiyev, A. (1989). O‘zbek tili so‘z yasalishi. O‘qituvchi.
3. Karimov, G. (2010). Comparative typology of English, Uzbek, and Russian languages. UzSWLU Press.
4. Po‘latov, M. (2012). O‘zbek tilining morfologiyasi. [Nashriyot ko‘rsatilmagan].
5. Rahmatullayev, Sh. (1990). O‘zbek tili leksikologiyasi. Fan.
6. Sodiqov, A. (1996). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘qituvchi.
7. Bauer, L. (1983). English word-formation. Cambridge University Press.
8. Cambridge Dictionary. (n.d.). Word formation. In English Grammar Today. Cambridge University Press & Assessment.
9. Encyclopaedia Britannica. (n.d.). English language. In Encyclopaedia Britannica.
10. Katamba, F. (1993). Morphology. Macmillan Press.
11. Lieber, R. (2009). Introducing morphology. Cambridge University Press.
12. Marchand, H. (1969). The categories and types of present-day English word-formation. Otto Harrassowitz Verlag.
13. Oxford English Dictionary. (n.d.). Updates. Oxford University Press.
14. Plag, I. (2003). Word-formation in English. Cambridge University Press.
15. Britannica: “English language”; “Uzbek language”; “Language typology”; “Turkic languages: Linguistic structure.”
16. Cambridge Dictionary, English Grammar Today, “Word formation.”